O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANI HOKIMINING QARORI

IND:131000 *O’smat sh. Mustaqillik ko’chasi 42-uy.*

2023 - yil 7 - dekabr 425-3-44-Q/23 Baxmal tumani hokimligi

Baxmal tumanida ijtimoiy muhofazaga muxtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarini band qilib qo’yish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to’g’risida”gi Qonunining 39-moddasi asosida, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarining eng kam sonini belgilash to’g’risida” gi Nizomiga asosan Baxmal tumanidagi korxona va tashkilotlarda 2024-yil mobaynida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarini band qilib qo’yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunning 6-moddasiga asoslanib

QAROR QILAMAN

1. O’zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to’g’risida”gi Qonunining 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarining eng kam sonini belgilash to’g’risida” Nizomga asosan, 20 nafardan ko’pni tashkil etgan korxona, tashkilot va muassasalarda (keyingi o’rinlarda-tashkilot deb ataladi) xodimlarning ro’yxatidagi o’rtacha sonining 10 foiz miqdorigacha, (shu jumladan nogironlar uchun 3-foiz) jami 92 ta kvota ish o’rinlari belgilash ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish

uchun ish o’rinlarining eng kam sonini belgilash to’g’risida” gi Nizomning 3-bandiga asosan, korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirib bo’lgan shaxslar ish o’rinlari 2024-yil uchun band qilib qo’yiladigan ish o’rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

Shu jumladan:

a) o’n to’rt yoshgacha bolalari bo’lgan va nogiron bolalari bo’lgan yolg’iz va ko’p bolali, kichik yoshli ishlamagan ota-onalar uchun 7 foiz (32 kishi);

b) umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo’yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 10 foiz (37 kishi);

v) safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o’tagan va O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo’shatilganlar uchun 7 foiz (9 kishi);

g) nogironlar uchun 3 foiz (5 kishi)

d) pensiya oladigan yoshdagi shaxslar uchun 7 foiz (7 kishi)

e) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko’ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qollanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 7 foiz (2 kishi);

3. Yuqoridagi toifadagi shaxslar uchun ish o’rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va mehnat sharoitlariga hamda amaldagi mehnat qonunchilik bo’yicha funksiyalariga, huquq va majburiyatlariga muvofiq bo’lishi ta’minlansin.

4. Ish o’rinlari zahiraga qo’yiladigan har bir tashkilotlarda kasblar va lavozimlar ro’yxati keltirib o’tilgan ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tashkilot rahbarlari yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtoj shaxslarga bo’sh ish o’rinlarining zaxirasiga qo’yiladigan o’rinlarni umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o’rinlari zahiraga qo’yilishi va tayyorligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqida boshlangunga qadar tuman Kambag’alikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limini xabardor qilinishi shartligi belgilab qo’yilsin.

6. Muhtojlar uchun ish o’rinlarining qolgan qismini zahiraga qo’yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlanishi va bu haqida tuman Kambag’alikni qisqartirish va bandlikka

ko’maklashish bo’limini birinchi chorak tamom bo’lgandan keyin aprel oyining 10 sanasidan kechiktirmay xabardor qilishi belgilansin.

Jumladan, har oyda xisobot oyidan keyingi oyning 5 sanasigacha tuman Kambag’alikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limiga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo’yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to’g’risida axborotini taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlamagan tashkilotlar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi nazarda tutilsin.

8. Belgilab qo’yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o’rinlarini band qilib qo’yish bo’yicha qarorini bajarmaganlik uchun qonuniy javobgarlikka tortilgan taqdirda ham tashkilotni band qilib qo’yiladigan ish o’rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod etilmaydi va kamaytirishga yo’l qo’yilmaydi.

9. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo’yish sonidan ortiqcha ish o’rinlari tashkil etilgan taqdirda ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga –har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to’lanishi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ-4227-son qarorining 1-bob, 2-bandiga asosan Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish jamg’armasi mablag’lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

10. Tuman Kambag’alikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limi (Z.Kuliyev) bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko’rsatilgan tashkilot raxbarlari e’tiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

11. “Baxmal hayoti” gazetasi tahririyati (T.Berdiyev) mazkur qaror gazetada rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Egamberdiyev) hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

12. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiritilsin va shu munosabat bilan tuman hokimining 2022-yil 21-noyabrdagi **409-3-44-Q/22**-sonli qarori o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilib borish tuman hokimining birinchi

o’rinbosari N.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **N.Sharipov**

Baxmal tumani tuman hokimining
2023-yil 7-dekabrdagi
425-3-44-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida joylashgan korxona tashkilot va muassasalarda 2024-yil uchun kvota ish o‘rinlarini belgilanishi kerak bo'lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish maxsus komissiyasi

Tarkibi:

1. N.Sharipov	Tuman hokimining birinchi o’rinbosari, komissiya raisi
2. Z.Kuliyev	Tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limi boshlig’i, komissiya raisi o’rinbosari
3. X.Xo’jamurodov	Tuman hokimining o’rinbosari, komissiya a’zosi
4. A.Eshonqulov	Tuman statistika bo‘limi boshlig‘i komissiya a’zosi
5. M.Ergasheva	Tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limi Ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bek ofis bosh mutaxassisi, komissiya kotibi

Baxmal tumani tuman hokimining
2023-yil 7-dekabrdagi
425-3-44-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Baxmal tumani bo‘yicha 2024 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha MANZILLI JADVAL

T/r	Tumanlar nomi	Topshiriq belgilangan korxona nomi	Korxonani INN raqami	korxonada ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:							
						14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun xujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun
1	Baxmal	Baxmal tumani tibbiyot birlashmasi	201774004	1314	25	8	9	2	2	2	2		
2	Baxmal	Baxmal tumani hokimligi "OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI"	201029502	293	5	2	1	1	1				
3	Baxmal	BAXMAL DAVLAT O‘RMON XO‘JALIGI	201030162	94	1	1		1					
4	Baxmal	Baxmal tumani 16-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206867059	30	1	1							
5	Baxmal	Baxmal tumani 5-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206871940	95	1		1						
6	Baxmal	Baxmal tumani 2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206863942	55	2		1			1			
7	Baxmal	Baxmal tumani Xalq ta’limi bo‘limi	207130019	80	1			1					
8	Baxmal	Baxmal tumani 15-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204613898	40	2	1	1						
9	Baxmal	Baxmal tumani 7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206872211	75	1	1							
10	Baxmal	Baxmal tumani 6-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206863959	74	1			1					
11	Baxmal	Baxmal tumani 64-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206862381	72	1		1						
12	Baxmal	Baxmal tumani 34-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206866985	67	1		1						
13	Baxmal	Baxmal tumani 30-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206867114	65	1	1							
14	Baxmal	Baxmal tuman 2-son kasb-hunar maktabi	206969500	64	1					1			
15	Baxmal	Baxmal tumani 19-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206870167	40	2	1	1						
16	Baxmal	Baxmal tumani Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi	201773987	59	1		1						
17	Baxmal	Baxmal tumani 13-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206863927	25	1		1						
18	Baxmal	Baxmal tumani 38-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206870150	54	1		1						
19	Baxmal	Baxmal tuman 1-son kasb-hunar maktabi	203262062	52	1	1							
20	Baxmal	Baxmal tumani 22-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206867224	52	1		1						
21	Baxmal	Baxmal tumani 20-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206870104	49	1		1						
22	Baxmal	Baxmal tumani 31-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206869159	50	1	1							
23	Baxmal	Baxmal tumani 73-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206867192	50	1			1					
24	Baxmal	Baxmal tumani 54-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206869181	47	1	1							
25	Baxmal	Baxmal tumani 24-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206886004	46	1	1							
26	Baxmal	Baxmal tumani 83-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	308728463	46	1	1							
27	Baxmal	Baxmal tumani 6-sonli Bolalar musiqa va san’at maktabi	207139661	43	1		1						
28	Baxmal	Baxmal tumani 86-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	308728584	43	1			1					
29	Baxmal	Baxmal tumani 50-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206867232	100	4	1	1		1	1			

30	Baxmal	Baxmal tumani 81-sonli matematika faniga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	207324274	42	1					1			
31	Baxmal	Baxmal tumani 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206876103	79	1		1						
32	Baxmal	Baxmal tumani 3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867042	47	1		1						
33	Baxmal	Baxmal tumani 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867027	42	1		1						
34	Baxmal	Baxmal tumani 4-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	207055808	41	1	1							
35	Baxmal	Baxmal tumani 7-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	207055324	40	1	1							
36	Baxmal	Baxmal tumani 84-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	308728321	40	1	1							
37	Baxmal	Baxmal tumani 56-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206870207	35	1	1							
38	Baxmal	Baxmal tumani 15-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	307328542	23	1		1						
39	Baxmal	Baxmal tumani 40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206870088	35	1		1						
40	Baxmal	Baxmal tumani 1-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	207055823	35	1				1				
41	Baxmal	Baxmal tumani 47-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206869198	34	1		1						
42	Baxmal	Baxmal tumani 85-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	308728427	34	1					1			
43	Baxmal	Baxmal tumani 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867249	46	1		1						
44	Baxmal	Baxmal tumani 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206866961	44	1		1						
45	Baxmal	Baxmal pedagogika kolleji	206930621	32	1	1							
46	Baxmal	Baxmal tumani 4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206862414	48	1								
47	Baxmal	Baxmal tumani 82-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	308728463	31	1			1					
48	Baxmal	Baxmal tumani 68-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867138	30	1	1							
49	Baxmal	Baxmal tumani 61-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206863934	24	1		1						
50	Baxmal	Baxmal tumani 2-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	206965554	24	1		1						
51	Baxmal	Baxmal tumani 6-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	207055783	28	1	1							
52	Baxmal	Baxmal tumani 12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206863998	25	1	1							
53	Baxmal	Baxmal tumani 14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	204572104	53	1		1						
54	Baxmal	Baxmal tumani 62-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206870199	27	1		1						
55	Baxmal	Baxmal tumani 11-sonli davlat maktabgacha ta'lim muassasasi	305953377	26	1		1						
56	Baxmal	Baxmal tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	201773970	26	1	1							
57	Baxmal	Baxmal tumani 59-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206863981	24	1	1							
58	Baxmal	Baxmal tumani "BARKAMOL AVLOD" bolalar markazi	207124791	21	1		1						
Jami		**X**	**X**	**1266**	**92**	**32**	**37**	**9**	**5**	**7**	**2**		